

AMIR TEMUR DAVRIDA ME'MORCHILIK SAN'ATI

To'xtayeva Mehribon Nodirjon qizi

Nizomiy nomidagi O'zbekiston milliy pedagogika universiteti tarix fakulteti 1- bosqich talabasi
tuhtayevamehribon@gmail.com

Annotatsiya: Amir Temur saltanati insoniyat sivilizatsiyasi tarixida nafaqat qudratli davlat, balki ulkan bunyodkorlik va arxitektura yuksalishi davri sifatida ham alohida o'rin tutadi. Ushbu maqolada Sohibqiron Amir Temur saltanatida madaniy hayotning asosi bo'lgan qurilish va bunyodkorlik ishlarining ko'lami tahlil qilinadi. Temuriylar renessansining ilk bosqichi sifatida qaraladigan ushbu davrda poytaxt Samarqandning dunyo sayqaliga aylanishi, muhtasham saroylar, masjid va madrasalar, hamda bog'-rog'larning barpo etilish jarayonlari yoritilgan. Shuningdek, Sohibqironning o'zi zabt etgan o'lkalarda ham keng ko'lamli qurilish ishlarini amalga oshirgani, vayron bo'lgan infratuzilmalarni tiklagani va strategik ahamiyatga ega inshootlar barpo etgani tadqiq qilinadi.

Аннотация: Государство Амира Темура занимает особое место в истории человеческой цивилизации не только как могущественное государство, но и как период огромного созидания и архитектурного подъема. В данной статье анализируется масштаб строительных и созидательных работ, являвшихся основой культурной жизни в государстве Сахибкирана Амира Темура. В этот период, рассматриваемый как первый этап Темуридского Ренессанса, освещаются процессы превращения столицы Самарканда в украшение мира, возведения величественных дворцов, мечетей и медресе, а также разбивки садов. Также исследуется то, что Сахибкиран осуществлял широкомасштабные строительные работы и на завоеванных им землях, восстанавливал разрушенную инфраструктуру и возводил сооружения, имеющие стратегическое значение.

Abstract: The state of Amir Temur holds a special place in the history of human civilization not only as a powerful state, but also as a period of immense creation and architectural rise. This article analyzes the scale of construction and creative works, which formed the basis of cultural life in the state of Sahibkiran Amir Temur. In this period, which is regarded as the first stage of the Temurid Renaissance, the processes of turning the capital Samarkand into the "beauty of the world," the construction of magnificent palaces, mosques, and madrasas, as well as the creation of gardens are highlighted. It also explores how Sahibkiran carried out large-scale construction works in the lands he conquered, restored destroyed infrastructure, and built structures of strategic importance.

Kalit so'zlar: Amir Temur, bunyodkorlik, me'morchilik, Samarqand, Go'ri Amir, Bibixonim masjidi, Shohi – Zinda majmuasi, Oqsaroy, Muhammad Sulton, zabt etilgan hududlar, mahobatli arxitektura

Ключевые слова: Амир Темура, созидание, архитектура, Гур-Эмир, мечеть Биби-Ханым, комплекс Шахи-Зинда, Аксарай, Мухаммад Султан, завоеванные территории, величественная архитектура.

Keywords: Amir Temur, creation, architecture, Gur-e-Amir, Bibi-Khanym Mosque, Shah-i-Zinda complex, Aqsaray, Muhammad Sultan, conquered territories, majestic architecture.

Markaziy Osiyo tarixida buyuk sarkarda va davlat arbobi sifatida tanilgan Amir Temur nafaqat qudratli imperiya barpo etgan, balki yuksak madaniyat va me'morchilik rivojiga ham katta hissa qo'shgan. Uning davrida ayniqsa, Samarqand shahri dunyoning eng go'zal va rivojlangan markazlaridan biriga aylangan. Temur qurdirgan inshootlar bugungi kunda ham o'zining betakror me'moriy uslubi va ulug'vorligi bilan ajralib turadi. Jahonni zabt etgan Sohibqiron Hindiston o'lkasini egallaganidan so'ng Samarqandga qaytib keldi va bu yerda jome masjidini bunyod etish haqida hukm qildi. Hijriy sakkiz yuz birinchi yil, 1399-yil 10-may ustalar masjid poydevorini qurishni boshladilar. Tosh yo'nuvchi (toshtarosh) ustalar Fors (Eron), Ozarbayjon va Hindistondan keltirilgan edi. Erkin ustalardan tashqari ikki yuz usta bevosita qurilish ishlariga mashg'ul bo'ldi. Besh yuz kishi esa tog'ga borib tosh kesish bilan band edi. Qayerda me'mor va hunarmand bo'lsa, barchasi shu yerga kelib ishga kirishdi. Tog'dan tosh keltirish uchun Hindistondan Samarqandgacha olib kelingan to'qson beshta zanjirband fil safarbar etildi. Har bir ishning boshiga nazoratchi (muhassis) sifatida bittadan shahzoda va bittadan bek tayinlandi. Jome masjidida toshdan yo'nilgan to'rt yuz sakson bitta ustun o'rnatildi, ularning har birining uzunligi yetti qarich edi. Masjidning shiftini ham toshdan yasab, to'rt tomoniga to'rtta minora barpo etdilar. Ushbu masjid Sohibqiron sevimli rafiqasi Saroymulxonim ya'ni Bibixonimga atab bunyod etilgan edi. Masjid qurilishi tamom bo'lgandan so'ng, Amir Temur Dilkushod bog'iga borib katta bayram uyushtirdi. Usta va hunarmandlarga to'nlar kiydirib, otlar sovg'a qildi.²⁵

Muhtasham obidalardan biri — Go'ri Amir maqbarasi hisoblanadi. Bu maqbara Amir Temurning o'zi uchun qurilgan bo'lib, uning ulug'vor gumbazi va nafis bezaklari bilan mashhur. Mazkur inshoot Temuriylar me'morchiligining eng yorqin namunalaridan biridir. Go'ri Amir maqbarasi (Amir Temur maqbarasi) Samarqandda XIV asr oxiri — XV asr boshlarida (taxminan 1403-1405 yillar) qurilgan. Muhammad Sulton yosh beklar va musulmon jangchilarga Qur'on o'rgatish uchun madrasa va xonaqoh qurdirgan edi. Uning vafotidan so'ng, Amir Temur nabirasining jasadini shu yerga dafn etib, ustiga maqbara qurishni buyuradi. Maqbara o'z davrining yetakchi me'morlari tomonidan islomiy me'morchilik an'analari asosida qurilgan. U yuksak gumbazli, nafis koshinkorlik bilan bezatilgan va ko'k rangdagi g'ishtlar bilan qoplangan. Maqbara ichi oltin suvi yugurtirilgan naqshlar, marmar va nefrit (yashil tosh) bilan bezatilgan. 1405-yilda Xitoyga yurish vaqtida vafot etgan Amir Temurning o'zi ham keyinchalik o'g'li Shohrux tomonidan ushbu maqbaraga, Muhammad Sultonning yoniga dafn etilgan. Amir Temurning qabri ustida yaxlit yashil nefrit toshdan yasalgan sag'ana o'rnatilgan.

Tarixiy manbalarda qayd etilishicha, Kesh shahri qadimdan islom ulamolarining yurti bo'lgan va ulug' muhaddislardan uchta imom shu yerda yashaganlar. O'sha davrlarda butun dunyo ahli turli diniy masalalar va so'rovlar yuzasidan fatvo so'rash uchun atrof-olamdan Kesh viloyatiga kelar edilar. U yerda ko'plab imomlar va fozil insonlar to'plangan bo'lib,

²⁵ Sharafuddin Ali Yazdiy – "Zafarnoma" – Sharq nashriyoti, Toshkent – 1997. B – 221.

barchaning darslari davom etar edi. Shu sababli Kesh shahri "Qubbatul ilm val adab" (Ilm va adab gumbazi) laqabini olgan edi. Bahor faslida u shaharning tomlari va toshlari yam-yashil bo'lib ketgani va ko'm-ko'k bo'lib ko'ringani sababli unga "Shahrisabz" (Yashil shahar) deb nom berilgan.²⁶ Oqsaroy Amir Temur tomonidan 1380-yili Shahrisabzda boshlanib, 1404-yilgacha (24 yil davomida) bunyod etilgan muhtasham qarorgohdir. Xorazm va boshqa hududlardan olib kelingan mohir me'morlar, ustalar tomonidan qurilgan ushbu saroy o'z davrining eng baland, hashamatli va koshinkor binosi hisoblangan. Tarixiy manbalarga ko'ra, Temur bu saroyi o'zining asosiy qarorgohlaridan biri sifatida qurdirgan. Oqsaroy o'zining nihoyatda katta va baland peshtoqlari bilan mashhur bo'lgan. Saroy devorlari rang-barang koshinlar, naqshlar va yozuvlar bilan bezatilgan. Eng diqqatga sazovor jihati — uning ulkan kirish darvozasi bo'lib, u o'sha davrda juda noyob me'moriy yechim hisoblangan. Binoning devorlari va peshtoqidagi rang-barang koshinlar va naqshlar oy yorug'ida jilolanib, oqarib ko'ringan. Aynan shu afsonaviy oqarish hodisasi sababli xalq orasida "Oqsaroy" nomi ommalashgan. Turkiy xalqlar an'anasida "oq" so'zi nafaqat rangni, balki poklik, ulug'vorlik, muqaddaslik va adolatni ham anglatgan. Shu ma'noda "Oqsaroy" — bu "Adolatli va ulug'vor saroy" degan ma'noni ham anglatadi. Rivoyatlarga ko'ra, XVI asrda Buxoro xoni Abdullaxon II Shahrisabzni qamal qilganida, uzoqdan ko'ringan Oqsaroyning mahobatidan hayratga tushadi. U o'zida hasad va qo'rqinch his qilib, saroyi buzishni buyuradi. Ammo saroyning bir qismi buzilgach, u qilgan ishidan qattiq pushaymon bo'lgan.

Shohizinda — Samarqand shahridagi Afrosiyob tepaligi janubida joylashgan, XI–XIX asrlarga oid dunyoga mashhur me'moriy yodgorlik. Shohizinda" fors tilidan tarjima qilinganda "Tirik shoh" degan ma'noni anglatadi. Bu nom Muhammad payg'ambarning amakivachchalari Qusam ibn Abbos bilan bog'liq. Afsonalarga ko'ra, u VII asrda Samarqandga islom dinini yoyish uchun kelgan va kofirlar hujumiga uchragach, quduqqa yashirinib, jannatga tiriklayin tushib ketgan.²⁷ Shohi Zinda majmuasi XI asrda paydo bo'lgan va bu yerdagi 20 dan ziyod maqbarada 44 lavha bitilgan qabrotoshlardan iboratdir. Majmuaga olib chiquvchi 40 bosqichli tik zinapoya mavjud bo'lib, u xalq orasida o'ziga xos ramziy ma'noga ega. Binolar o'zining noyob moviy va feruza rangli koshinlari, terrakohta naqshlari bilan ajralib turadi. Samarqand taxtiga Amir Temur o'tirgach Shohizinda ansamblining hayotida ham katta o'zgarishlar ro'y berdi. Amir Temur bu yerdagi ko'pgina, xarobaga aylangan inshootlarning o'rniga yangisini qurdi, ko'plarini qayta ta'mirladi, Qusam ibn Abbos qabri ustiga hashamatli qabrtosh o'rnatirdi. Shuningdek, Sohibqironning buyrug'i bilan bu yerda yangi masjid ham barpo qilindi. Shohizinda majmuasidagi maqbaralar eshiklari va peshtoqlariga arab alifbosining bir necha xil (kufiy, suls, nasx) xatlarida Qur'on oyatlari, hadislar va me'morlarning ismlari bitilgan. Masalan, kirish darvozasida Qusam ibn Abbosning payg'ambarimizga o'xshashi haqidagi hadis yozilgan.²⁸ Shohizinda yo'lagi bo'ylab Amir Temurning opasi Shirinbeka og'o (1385-yil), singlisi Turkan og'o (1372-yil), xotini Tuman og'o (1405-yil) va yaqin sarkardalari (masalan, Amir Burundiq) uchun hashamatli maqbaralar qurilgan. Amir Temurdan so'ng uning

²⁶ Sharafuddin Ali Yazdiy – "Zafarnoma" – "Sharq" nashriyoti, Toshkent-1997. B – 87-88.

²⁷ To'liqin Hayit, Ibrohim Mikoil o'g'li – "Shohi Zinda" – Toshkent, "Yangi asr avlodi", 2005. B – 45

²⁸ O'zbekiston obidalaridagi bitiklar. Samarqand: Shohi Zinda, Loyiha rahbari F. Abduxolliqov – Toshkent- 2015. B -35

nabirasi Mirzo Ulug'bek majmuaga ulug'vor kirish darvozasini (1434-1435) qo'shib, ansamblni yakuniga yetkazgan. Hozirgi kunda ushbu majmua " Samarqand marvaridi " degan nomga sazovor bo'lgan.

"Dunyoni adolat va obodonchilik bilan bezadim" degan tamoyilga amal qilib, bosib olingan yoki vayron bo'lgan shaharlarni tiklashga katta ahamiyat bergan. Qozog'iston (Turkiston): Eng mashhur inshootlardan biri — Xo'ja Ahmad Yassaviy maqbarasi. Sohibqiron 1397-1399-yillarda buyuk mutasavvif qabri ustiga ushbu muhtasham yodgorlikni qurdirgan. Ozarbayjon: Qorabog'da uzunligi 42 km (ayrim manbalarda 60-70 km) bo'lgan kanal qazdirgan. Baylaqon shahrini qayta tiklagan va Mug'on cho'lida 12 ta bog' barpo etgan. Murg'ob vodiysida vayron bo'lgan sug'orish tizimlarini tiklash uchun daryodan 20 ta kanal qazdirgan. Urushlar natijasida vayron bo'lgan Bag'dod shahrini qayta tiklash, u yerda madrasalar va jamoat binolari qurish ishlariga boshchilik qilgan. Sohibqiron qayerda bo'lmasin, yangi yo'llar, karvonsaroylar va ko'priklar qurdirish orqali savdo yo'llarini (Buyuk Ipak Yo'li) jonlantirishga intilgan. Temuriylar davri ma'naviyatining ajralmas bo'lagi sanalgan me'morchilik va binokorlik san'ati bu davrda o'zining yuksak cho'qqisiga ko'tarilganligi asoslangan.

Xulosa qilib aytganda, Amir Temur davrida bunyod etilgan me'moriy inshootlar nafaqat o'z zamonining buyuk yutuqlari, balki bugungi kunda ham jahon madaniy merosining ajralmas qismidir. Bu obidalar Sohibqironning bunyodkorlik salohiyati, san'atga bo'lgan yuksak e'tibori va qudratli davlat barpo etishdagi mahoratini yaqqol namoyon etadi. Oqsaroy peshtoqiga bitilgan "Agar bizning qudratimizga shubha qilsang, biz qurgan imoratlarga boq!" degan purma'no jumlar Amir Temurning tarix sahnasida o'chmas iz qoldirganidan dalolat beradi. Uning me'moriy merosi kelajak avlodlar uchun bebaho xazina bo'lib xizmat qiladi. Temuriylar davri tarixini chuqur o'rganmay turib, o'tmish va kelajak haqida to'liq tasavvurga ega bo'la olmaymiz.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Sharafiddin Ali Yazdiy "Zafarnoma", " Sharq", Toshkent – 1997
2. To'liqin Malik, Ibrohim Mikoil o'g'li " Shohi Zinda", " Yangi asr avlodi", Toshkent – 2005
3. O'zbekiston obidalaridagi bitiklar. Samarqand: " Shohi Zinda" , Loyiha rahbari : F. Abduxoliqov, Toshkent – 2015
4. Amriddin Berdimurodov " Go'ri Amir maqbarasi " , "Abdulla Qodiriy", Toshkent – 1996
5. Nizomiddin Shomiy " Zafarnoma " , " O'zbekiston" , Toshkent – 1996
6. Safarovich, S. S., & Odiljonovich, I. F. (2020). Symbiosis of civilizations as an important factor in the formation and development of scientific thinking in Uzbekistan. *Mental Enlightenment Scientific-Methodological Journal*, 1-12.
7. Odiljonovich, I. F. (2022). The Role Of Art Exhibitions In The Development Of Cultural Relations Between Uzbekistan And The European Union. *Journal of Pharmaceutical Negative Results*, 1522-1524.

